

**RAQOBAT QONUNCHILIGI BO‘YICHA DAVLAT XARIDLARINI
AMALGA OSHIRISHDA RAQOBATGA ZID HARAKATLARNI
OLDINI OLISHNING HUQUQIY MOHIYATI**

Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti tyutori

E-mail: ixtiyormahmarahimov1710@gmail.com

ANNOTATSIYA

Davlat xaridlarining asosiy tamoyillari — ochiqlik va shaffoflik, raqobat, xolislik va korrupsiyaning oldini olish hisoblanadi. Ammo hozirgi kunda davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida ba’zi qonunbuzarlik holatlari ham uchrab turmoqda. Jumladan, raqobatga zid ravishda tuzilgan kartel kelishuvlari tovar yoki moliya bozorlarida raqobatni cheklaydigan, uning ildizlariga bolta uradigan va sezilarli ravishda raqobatni zaiflashtiradigan bitimlar hisoblanadi. Tender savdolarida raqobatga qarshi harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining hal qiluvchi jihatni bo‘lib, halol raqobatni ta’minlash hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini himoya qiladi. Ushbu maqolada davlat xaridlari sohasidagi qonunbuzilish holatlarini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan huquqiy choralarni ko‘rish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: tender, gorizontal, vertikal, javobgarlikdan ozod qilish, kartel kelishuvlari, raqobat illuziyasi, til biriktirish, yozma, og‘zaki, tadbirkorlik subyektlari, moliyaviy sanksiyalar.

LEGAL ESSENCE OF PREVENTING ANTI-COMPETITIVE ACTIONS IN PUBLIC PROCUREMENT ACCORDING TO COMPETITION LAW

ABSTRACT

The main principles of public procurement are openness and transparency, competition, impartiality and prevention of corruption. However, there are cases of violations of the law in the process of public procurement. In particular, anti-competitive cartel agreements are agreements that limit competition in commodity or financial markets, strike at its roots and significantly weaken competition. The prevention of anti-competitive actions in tenders is a crucial aspect of competition legislation, which ensures fair competition and protects the interests of state authorities and management bodies, as well as business entities. This article discusses the issues of identifying violations of the law in the field of public procurement and taking legal measures to prevent them.

Key words: tender, horizontal, vertical, exemption from liability, cartel agreements, illusion of competition, collusion, written, oral, business entities, financial sanctions.

KIRISH

Davlat xaridlarining ahamiyati davlatning hozirgi vaqtda tovarlar vaxizmatlarning eng yirik iste'molchisi ekanligi bilan belgilanadi. Ta'lim muassasalari, kasalxonalar, ko'priklar va yo'llarni qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va jihozlash, shu va shunga o'xshash sohalardagi muhim iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa vazifalar davlat tomonidan davlat xaridlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston kabi iqtisodiyotda yirik davlat ulushiga ega bo'lgan mamlakatlar xususiy sektorni moliyalashtirishda davlat xaridlari muhim manbai hisoblanadi.

Hisob palatasining hisobotiga ko‘ra, ajratilgan mablag‘larning samarali va maqsadli ishlatalganligi, bajarilgan qurilish-ta’mirlash ishlarining sifati bo‘yicha davlat xaridlarining qonuniyligi yuzasidan jami 677,6 mlrd so‘mlik xato va kamchiliklar hamda tender savdolarida 3,5 trln so‘mlik qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘yilgan.¹ Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining hisobotiga ko‘ra esa, 2021 yilda davlat xaridlari bo‘yicha 452 ta tender savdolarida 145,3 mlrd co‘m miqdorida qonun hujjatlarining buzilish holatlari aniqlangan.² Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi davlat buyurtmachilarini tomonidan amalga oshirilgan xaridlar bo‘yicha 2023-yil sentabr oyi monitoringi natijalariga ko‘ra, ayrim davlat buyurtmachilar 15 ta holatda jami 13,7 mlrd so‘mlik davlat xaridlarini amalga oshirishda bir qator qonunbuzilishi holatlariga yo‘l qo‘ygan.

Xususan, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi (raqobat va xolislik prinsipi), 14-moddasi (manfaatlar to‘qnashuvi), 20-moddasi (xarid komissiyasining huquq va majburiyatları), 42-moddasi (Ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish shartlari) va 46-moddasi (davlat xaridlari jarayonidagi cheklovlar) hamda «Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan nizomning bir qator talablari buzilishiga yo‘l qo‘yilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzuni yoritishda tizimli huquqiy tahlil, taqqoslash, qiyosiy-huquqiy, induksiya va deduksiya kabi usullar qo‘llanilgan. Shuningdek, mavzuni tahlil etish davomida adabiyotlar tahlilini amalga oshirishda O‘zbekistondagi olimlardan X.Radjapov hamda B.Xodjayevlarning ilmiy ishlari hamda MDH mamlakatlari olimlaridan L.Makaricheva, Gonchara Danila Ivanovichning olib borgan tadqiqotlariga tayanilgan.

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-6000473>. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 29.04.2022 yildagi SQ-531-IV-son qarori.

² <https://anticorruption.uz/uz/item/2022/03/10/agentlikning-2021-jildagi-faoliyati-natizhalariga-bagishlangan-matbuot-anzhumani-bolib-otdi>

NATIJALAR

Tender savdolarida ko‘pincha quyidagi 3 xil ko‘rinishda kartel kelishuvlari bo‘lishi mumkin:

1) Tadbirkorlik subyektlari, masalan, tijorat takliflarini kelishilgan holda taqdim etish yo‘li bilan asossiz yuqori boshlang‘ich maksimal shartnoma narxini belgilash to‘g‘risida o‘zaro kelishib olishadi;

2) Savdo ishtirokchilari auksionlarda (kotirovkalar yoki auksionlarni taqdim etishda) shartnomaning maksimal narxini saqlab qolish uchun til biriktiradilar, navbatma-navbat minimal pasaytirilgan narx takliflarini kiritadilar;

3) Ishtirokchilar, tender oldidan, g‘olibni, masalan, tijorat to‘lovi evaziga yoki yutqazgan tashkilotni subpudratchi qilishga rozi bo‘lganda, aniqroq shartlar bilan takliflarni taqdim etadilar¹.

Shuningdek, raqobatga zid tender savdolarining belgilari mavjud bo‘lib, ularning bo‘lmasligi tender adolatli o‘tganligi hamda ishtirokchi tadbirkorlar xolis raqobat muhitida bellashganligini anglatadi. Ular quyidagilar:

- g‘olibning ketma-ketlik sxemasi mavjudligi;
- mantiqsiz ravishda tender savdosida ishtirok etishdan voz kechish;
- oxirgi daqiqalarda tender g‘olibining o‘z taklifini rad etishi;
- g‘olib tomonidan yutqazgan ishtirokchilar bilan subpudratshartnomasi tuzilishi;
- boshqa hududlar bilan taqqoslaganda doimiy va o‘zgarmas narx darajasi;
- narxning jamoaviy o‘zgarishi yoki o‘sishi;
- yangi a’zo tenderda ishtirok etayotganda narxlarning birdan pasayib ketishi;
- arizadagi bir xil hisob-kitoblar va bir xil xatolar mavjudligi.

MUHOKAMA

Raqobatga qarshi bitimlarning eng xavfli shakllari narxlarni belgilash, tenderlarda til biriktirish, ishlab chiqarish miqdorini cheklash va bozorni taqsimlashdir. L.S.Makerichovaning “Особенности условий и формы картельного соглашения”

¹ Выпускная квалификационная работа студента 2 курса магистратуры очной формы обучения Гончара Даниила Ивановича. Санкт-Петербург-2018

nomli maqolasida keltirilishicha, quyidagi shartlar bajarilsa, bozor ishtirokchilari o‘rtasida “kartel kelishuvi” bor deb hisoblanar ekan:

- 1) kelishuv ishtirokchilarining xohish-istiklari o‘rtasida kelishuv mavjudligi isbotlangan bo‘lsa;
- 2) kelishuv shunga vakolatli shaxslar tomonidan ifodalangan bo‘lsa;
- 3) sharhoma mazmuni juda aniq belgilangan, xususan:
 - a) uning predmeti;
 - b) yuzaga kelishining real imkoniyati mavjud bo‘lgan bo‘lsa;
 - c) “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan shaklda (yozma, og‘zaki) yoki konklyudent harakatlar tufayli tuzilgan bo‘lsa¹.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda shartnomalar huquq va majburiyat keltirib chiqarishda qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, kartel kelishuvlarni aniqlashda ham bunday kelishuv belgilarining haqiqatda mavjudligini aniqlash ahamiyatli hisoblanadi va bu vakolatli organning vazifasi sirasiga kiradi.

Rossiyada qonun chiqaruvchi kartellarni 5ga bo‘lib ko‘rsatadi:

- 1) narxlar karteli;
- 2) tenderlardagi kartellar;
- 3) mahsulot bozorini bo‘lib olish;
- 4) tovar ishlab chiqarishni qisqartirish yoki to‘xtatish;
- 5) muayyan sotuvchilar yoki mijozlar bilan shartnomalar tuzishdan bosh tortish².

Tender savdolaridagi raqobatga zid harakatlar quyidagi ikki xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

- vertikal: buyurtmachi va tender ishtirokchisi o‘rtasidagi o‘zaro til biriktirish
- gorizontal: tender ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro til biriktirishlar

¹ Макарычева Л. С. Особенности условий и формы картельного соглашения. Молодой учёный. Международный научный журнал. № 11 (301) / 2020

² Выпускная квалификационная работа студента 2 курса магистратуры очной формы обучения Гончара Даниила Ивановича. Санкт-Петербург-2018.

Buyurtmachi va tender ishtirokchisi o‘rtasidagi o‘zaro til biriktirishiga “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 29-moddasida bir necha shakllari keltirib o‘tilgan bo‘lib, masalan boshqa ishtirokchi g‘olibga aylanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida savdolarda takliflar bilan ishtirok etish, savdolar ishtirokchilariga asossiz talablar qo‘yish, shu jumladan ularning malakasiga nisbatan raqobatni cheklaydigan yoki cheklashga olib kelishi mumkin bo‘lgan talablar qo‘yish bunga misol bo‘lishi mumkin.

Ikkinci ko‘rinishi, ya’ni raqobatchilarning o‘zaro til biriktirib olishi ham tender savdolariga zid harakat hisoblanadi. Ular bir tenderda alohida-alohida sifatida ishtirok etadilar, ammo oldindan manfaatli til biriktirib oladilar. Bu til biriktirishda qo‘g‘irchoq kompaniyalar raqobatchi rolini o‘ynashi, ketma-ketlikda g‘oliblikka kelishuv o‘yinlari kabilar bo‘lishi mumkin. Masalan, aytaylik tender savdolarida A, B va V kompaniyalar ishtirok etdi va V kompaniya g‘olib bo‘ldi. Ular tenderda ishtirok etish chog‘ida bergen takliflari orasida ham aslida deyarli hech qanday farq yo‘q edi. V kompaniya g‘olib bo‘lgandan so‘ng, tenderda ishtirok etgan A va B kompaniya bilan subpudrat shartnomasini tuzadi. Ushbu harakatning ahamiyatini ikki xil usulda tahlil qilishimiz mumkin:

Bir tarafdan, Fuqarolik kodeksining 634-moddasiga ko‘ra, agar qonunchilikda yoki pudrat shartnomasida ko‘rsatilgan ishni shaxsan o‘zi bajarish majburiyatları kelib chiqmasa, pudratchi o‘z majburiyatlarining bir qismini bajarish uchun boshqa shaxslar (yordamchi pudratchilar)ni jalb qilishga haqli. Shunday ekan, A va B kompaniyani ishga jalb qilishga V kompaniya haqli edi. Ammo raqobatga zid tender savdolari belgilaridan biri sifatida yuridik adabiyotlarda g‘olib bo‘lgan ishtirokchining g‘olib bo‘lmanan ishtirokchilar bilan subpudrat shartnomasi tuzishi keltirib o‘tilgan. Ushbu holatda bunday munosabatlarning raqobatga zid ekanligini keltirib o‘tilishiga sabab bizningcha, bunda raqobatga zid bo‘lgan “ketma-ket” g‘oliblik yoki hammaga birdek “manfaat” keltiradigan kelishuvlar natijasi bo‘lishi mumkin. Masalan, bunda bir safar V kompaniya, bir safar A kompaniya, bir safar B kompaniya g‘olib bo‘lishga

kelishilgan bo‘lishi mumkin. Shu boisdan bunday holatlarda harakatning raqobatga zid yoki zid emasligini isbotlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda raqobatga qarshi bitimlar, ya’ni raqobatga zid ravishda tuzilgan kartel kelishuvlari tovar yoki moliya bozorlarida raqobatni cheklaydigan, uning ildizlariga bolta uradigan va sezilarli ravishda raqobatni zaiflashtiradigan bitimlar hisoblanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, raqobatga qarshi bitim tenderlarda raqobatni cheklaydigan yoki cheklashga olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday og‘zaki yoki yozma kelishuvni ham o‘z ichiga oladi. Bir qaraganingizda xuddiki, ular bir-biri bilan raqobatlashayotganday ko‘rinadi. Aslini olib qaraganingizda esa ular “raqobat illuziyasi”ni sodir qilib, raqobat sahnasida o‘zlarining “aktyorlik mahoratlari”ni namoyish qilayotgan bo‘lishadi. Bizning qonunchiligidizda ham raqobatga zid harakatlarning oldini olish uchun qator qoidalar o‘rnatilgan. Misol uchun aytadigan bo‘lsak, “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 42-moddasida raqobat qonunchiligini buzganlik uchun bir qator moliyaviy sanksiyalar belgilab qo‘yilgan. Ammo, bular raqobatga zid harakatlarning oldini olishga yetarli bo‘lmayotgandek, nazarimizda. Shu sababli raqobat bozorida raqobatga zid bo‘lgan harakatlarning oldini olish uchun yangi g‘oyalar o‘ylab topish hamda qonunchilikka o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish lozim.

Masalan, “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasi “Raqobatga qarshi kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan harakatlar uchun javobgarlikdan ozod qilish” deb nomлананди. Unga ko‘ra, raqobatga qarshi kelishuv yoki muvofiqlashtirilgan harakat ishtirokchisi bo‘lgan, mazkur kelishuv yoki harakat sodir etilganligi haqida vakolatli davlat organiga birinchi bo‘lib ixtiyoriy ravishda ariza bilan murojaat qilgan jismoniy shaxs, xo‘jalik yurituvchi subyekt, yuridik shaxslar birlashmasi tegishincha ma’muriy va moliyaviy javobgarlikdan ozod qilinadi. Bu qoidani tender savdolarida ham qo‘llashimiz mumkin albatta. Chunki tender savdolarida ham roqabatga zid harakat deya kartel kelishuvlarni olishimiz mumkin. Agar tender savdolarida kartel kelishuvlar bo‘ladigan bo‘lsa, 20-moddaga ko‘ra, bu haqida xabar bergenlik uchun javobgarlikdan ozod qilinuvchilar ro‘yxati tugal belgilangan. Ya’ni mazkur kelishuv yoki harakat sodir

etilganligi haqida vakolatli davlat organiga birinchi bo‘lib ixtiyoriy ravishda ariza bilan murojaat qilgan jismoniy shaxs, xo‘jalik yurituvchi subyekt, yuridik shaxslar birlashmasi tegishinchada ma’muriy va moliyaviy javobgarlikdan ozod qilinadi. Tender savdolarida bir taraf asosan davlat hokimiyati organlari bo‘ladi. Shunda 20-modda bo‘yicha davlat hokimiyati organi kartel kelishuvi haiqda xabar bersa, unda javobgarlikdan ozod bo‘lish huquqi mavjud emasmi yoxud umuman olganda kartel kelishuvlari uchun davlat organi javobgar bo‘lmaydimi?

Qolaversa, bu chorani yanada kengaytirish ham raqobatga zid harakat sodir etilishining oldini olishga ijobiy yordam ko‘rsatishi mumkin. Bizning qonunchiligidan binoan, raqobatga zid harakatlar sodir etilgandan keyin ixtiyoriy ravishda birinchi bo‘lib aytgan xususiy shaxslar yuz foiz javobgarlikdan ozod etiladi. Boshqa xorijiy mamlakatlar qonunchiligidan bu tartib biroz o‘zgacha. Misol uchun, ularda ixtiyoriy ravishda birinchi bo‘lib murojaat qilgan shaxs yuz foiz javobgarlikdan ozod qilinadigan bo‘lsa, ikkinchi yoki uchinchi bo‘lib ariza bilan murojaat qiladigan shaxslar ham tegishlicha foizlarda javobgarlikdan ozod qilinar ekan. Bu tartibni bizning qonunchiligidan ham olib kirsak, raqobatga zid harakatlarning oldini olishga biroz bo‘lsada, ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunning 81-moddasida Davlat xaridlari subyektlari va ularning mansabdor shaxslari ushbu Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi va shartnomalar bo‘yicha o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar lozim darajada bajarilishi uchun javobgar bo‘ladi.

Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi, deb belgilangan. Bundan tashqari Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 175⁸-moddasida ham davlat xaridlarini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga nisbatan javobgarlik ham belgilangan. Demak, ular javobgarlikka tortilar ekan, kartel kelishuvlar haqida xabar berganlikdan ular ziyon ko‘rishi mumkin. Bu esa fikrimizcha, kartel kelishuvlarni sir saqlash uchun kuchli urinishlarga olib keladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tender savdolarida raqobatga qarshi harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining hal qiluvchi jihatni bo‘lib, halol raqobatni ta’minalash hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini himoya qiladi.

Shuningdek, davlat xaridlari sohasidagi qonunbuzilish holatlarini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan huquqiy choralar sifatida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1) fikrimizcha, osonlik bilan kirish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarga ega bo‘lgan ochiq va shaffof tender tartib-qoidalarini o‘rnatish tenderda soxtalashtirishni oldini oladi va adolatli raqobatni ta’minalaydi;

2) Risklarni baholashning mustahkam mexanizmlarini joriy etish raqobatga qarshi potensial amaliyotlarni erta aniqlashga yordam beradi;

3) Shaxsni ma’lumot beruvchidan himoya qilish bo‘yicha kuchli dasturlarni o‘rnatish odamlarni mumkin bo‘lgan huquqbazarliklar haqida xabar berishga undaydi;

4) Raqobat organlari, davlat xaridlari organlari va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikning kuchayishi bilim almashishni osonlashtirishi va raqobatga qarshi xatti-harakatlarning namunalarini aniqlashi mumkin;

5) Xavfsiz elektron tender platformalaridan foydalanish va kuchli kiberxavfsizlik choralarini qo‘llash manipulyatsiya xavfini kamaytirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Raqobat huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2018.
2. Макарычева Л. С. Особенности условий и формы картельного соглашения. Молодой учёный. Международный научный журнал. № 11 (301) / 2020.
3. Выпускная квалификационная работа студента 2 курса магистратуры очной формы обучения Гончара Даниила Ивановича. Санкт-Петербург-2018.
4. X.Radjapov. Davlat xaridlaridagi korrupsiyadan qanday qutulish mumkin? www.gazeta.uz.
5. <https://lex.uz/uz/docs/-6000473>. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 29.04.2022 yildagi SQ-531-IV-son qarori.
- 6.<https://anticorruption.uz/uz/item/2022/03/10/agentlikning-2021-jildagi-faoliyati-natizhalariga-bagishlangan- matbuot-anzhamani-bolib-otdi>